



THE SYMBOLIC EXPRESSION OF ARTISTIC IMAGERY IN GUL PACHO ULFAT'S STORIES

Muxlisa To'lqinova

3rd-year student, Pashto-English group

School of Iranian and Afghan Studies

Tashkent State University of Oriental Studies

N. Kabirova

Associate Professor, PhD,

School of Iranian and Afghan Studies, TSUOS

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Afghan short fiction, symbol, psychological experience, artistic imagery, idea, comparative analysis.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: This article analyzes the work of Gul Pacho Ulfat, a prominent writer of Pashto-language fiction in Afghanistan, with a focus on his short story "Life". Unlike traditional Afghan prose writers, Ulfat is more interested in the depiction of nature and the symbolic processes within it. The priority is not on the events themselves, but on expressing the psychological response to reality. His stories often stand out for their focus on revealing the inner aspects of the human psyche. Additionally, the author enriches the portrayal of the protagonist's psychological processes with vivid scenic imagery. For a broader study, a comparative analysis is conducted with his short story "Wonder".

GUL PACHO ULFAT HIKOYALARIDA BADIY TASVIR VOSITALARNING RAMZIY IFODASI

Muxlisa To'lqinova

3-kurs pashtu-ingliz guruhi talabasi

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

N. Kabirova

"Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti, PhD

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: afg'on hikoyachiligi, ramz, ruhiy kechinma, tasviri vosita, fikr, qiyosiy tahlil.

Annotatsiya: Mazkur maqola Afg'oniston pashtuzabon hikoyachiligining zabardast yozuvchisi Gul Pacho Ulfat ijodi, xususan uning "Hayot" hikoyasi tahlil qilindi. Adibni an'anaviy afg'on nosirlaridan farqli o'laroq ko'proq tabiat tasviri va unda sodir bo'ladigan jarayonlar ramzlar orqali qiziqtiradi. Voqeani emas, voqelikka nisbatan ichki psixologik munosabatni ifodalash ustuvor o'rinda turadi. Yozuvchining bir qator hikoyalarida inson ruhiyatining ana shunday jihatlarini ochishga yo'naltirilgani bilan ajralib turadi. Shu bilan birga yozuvchi qahramon ruhiyatida kechayotgan jarayonlar ifodasini turli lavhalar tasviri bilan boyitadi. Hikoyani kengroq tadqiq etish maqsadida yozuvchining "Xayrat" hikoyasi bilan qiyosiy o'rganildi.

СИМВОЛИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОБРАЗОВ В РАССКАЗАХ ГУЛ ПАЧО УЛФАТА

Мухлиса Толқинова

Студентка 3 курса, группа пушту-английский

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

H. Кабирова

доцент, PhD,

Высшая школа иранистики и афганистики, ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: афганская проза, символ, психологическое переживание, изобразительное средство, идея, сравнительный анализ.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу творчества одного из выдающихся писателей афганской пуштуязычной прозы Гул Пачо Улфата, в частности его рассказа «Жизнь». В отличие от традиционных афганских прозаиков, автора больше интересует изображение природы и символика происходящих в ней процессов. В центре внимания находится не само событие, а психологическое восприятие действительности. Ряд рассказов писателя выделяется стремлением раскрыть внутренние аспекты человеческой психики. Кроме того, писатель обогащает выражение душевных переживаний героя живописными сценами. В целях более глубокого анализа

проводится сравнительное изучение с рассказом «Удивление».

Afg‘on shoiri, yozuvchi, jurnalist va jamoat arbobi Gul Pocho Ulfat 1909 yilda Afg‘onistonning Mashriqiy viloyatiga qarashli Lag‘mon qishlog‘ida islomiy oilada dunyoga kelgan. Dastlabki ta’limni qishlog‘ida yakunlagach, Jalolobod va Kobulda tahsil oladi. Pashtu (afg‘on) va forsi-kobuliy (dariy) tillarida ijod qilgan. Afg‘on akademiyasi adabiyot bo‘limi mudiri (30-y.lar 2-yarmi), prezidenti (1956—62) lavozimida faoliyat olib borgan. Shu bilan birga Ulfatning “Afg‘on qo‘sishqlari” 1946 y. “Saylangan she’rlar” 1954 y. she’rlari “Tanlangan hikoyalari” 1957 y. hikoyalari “Yozuvchilik mahorati” 1961 y. ko‘plab asarlari nashr qilingan. Yozuvchi asarlarida qarama-qarshi tushunchalarning o‘zaro bog‘lanishi va ijtimoiy-hayotiy kechinmalar tasvirlanadi. U falsafiy qarashlarni o‘z asarlariga kiritib, “Dard va baxt”, “Yaxshi va yomon”, “Kuchli va zaif”, “Buyuk va kichik”, “Majburlik va erkinlik” kabi mavzularni o‘rganadi. U shuningdek kichik va kattalikning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadigan obrazlarni yaratadi — masalan, kichik noyob xususiyatlar va ularning yuksalishi.

Ulfatning falsafiy prozaik miniaturalarida insonning ichki dunyosiga chuqur kirib borish va narsalarning haqiqiy mohiyatini anglashga bo‘lgan intilish ko‘rinadi. U doimiy ravishda ko‘rinadigan va haqiqiy ma’nolarni ajratib ko‘rsatadi. Ulfat shunday fikrni bildiradi: inson yolg‘izlik va jimlikka muhtojdir, chunki bu — ijod qilishning eng zaruriy shartidir. “Hayotdagi har bir kishiga o‘zining o‘rni berilganda, shoir odamlarning olisida yashaydi. U jamiyatning a’zosiga aylansa ham, uning taqdiri yolg‘izlikdir”, deb yozadi. Shunday davom etadi: “Agar jamoa qanday erkin bo‘lmisin, u hammasi uchun ba’zi cheklovlardan qutila olmaydi”. Yozuvchining fikriga ko‘ra, yolg‘izlik va uyg‘unlik ijodkor shaxsning o‘zi bilan bo‘lishi uchun zarur bo‘lib, bu uning jamiyat bilan bog‘lanishini ta’minlaydi. “Ulfatning yolg‘izligi”ni Ruxiy shunday tavsiflaydi: “Ulfatning yolg‘izligi - bu hamma narsadan uzoqlashib, o‘zining san’ati uchun ajratilgan holat emas, balki odamlar uchun yozilgan san’atdir” .

Yozuvchining “زوند” (“Hayot”) deb ataluvchi hikoyasida nozik ishoralarga, ingichka ifodalarga boy sof tabiatning bir bo‘lagi bo‘lmish suv, go‘zal tabiat va insonlar tomonidan yaratilgan idishlarning tasviri bor. Bu hikoyada bo‘rtib turgan ijtimoiy ma’no ham, dardkash qalb izardorlari ham yo‘q. Unda tabiatning beqiyos ilohiy go‘zalligi va undan hayratlanayotgan masrur ko‘ngil entikishlarigina ifoda etilgan,xolos.

“Hayot” hikoyasida yozuvchi insonlar suvgaga e’tibor qaratib emas, balki suv qanday idishda ekanligiga qarab yashashini qisqa jumlalarda yoritib o’tgan. Bu haqiqat hozirgi paytga ham to’g’ri keladi. Chunki odamlar berayotgan suvingizga emas, qanday idishda uni uzatayotganingizga qaraydilar.

په او بوي کبني هیچ فرق نشه فرق په لوښو کبني دی

Suvda hech qanday farq yo‘q, farqi idishlardadir.

Hikoyadagi “suv” nafaqat hayot timsolida, ba’zi bir manbalarda esa suv insonni tozalaydigan ya’ni poklaydigan timsolda keladi. Huddi charxpalak aylanib, loyqa suvni toza suvgaga aylantirgani kabi, bizning hayotimizda - suv charxpalak ro‘lini o‘ynaydi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Gul pacho “Hayot” hikoyasida suvni shunday tasvirlaganki, hikoyadagi holat o‘quvchining ko‘z o‘ngida paydo bo‘ladi. Zar qadrini zargardan so‘ra deganlaridek, suv qadriga sahroda holdan toygan, quyosh tig‘ida mehnat qilgan dehqonlarchalik, soya-salqin joyda dam olib o‘tirgan inson qadriga yetmasligini ko‘rishimiz mumkin.

هغه لاروى چى له بىدىانە سىرى سىومانە راھى اوئىندە يې بىرە زياتە دە دا اوېھ دېر خوند ورکوي

“Sahrodan holdan toyib kelayotgan va chanqog‘i juda kuchli yo‘lovchi uchun bu suv katta lazzat bag‘ishlaydi”.

Tip-tiniq suvli anhor tinimsiz o‘ynoqlab oqqani bois unda aks etayotgan poklik timsoli suvda mujassamdir. Gul Pacho Ulfatning “Зонд” (“Hayot”) va “Хират” (“Xayrat”) hikoyasini solishtiradigan bo‘lsak, bu ikki hikoyani birlashtiradigan ma’no - insonlarni moddiy kelib chiqishi bilan ajratiladigan holat, ya’ni boy va kambag‘allikka ajratishdir. Hikoyaning ushbu satrlarida o‘qisak bo‘ladi:

دېبىي چىنى اوېھ دى، خوک بى د زروپە جام كېنى ٿېنى ، خوک بى دخاورو پە كندولى كېنى

“Bir buloqning suvi, kimdir uni oltin idishda ichadi, kimdir esa uni loydan qilingan idishda”.

“Hayot” hikoyasidan olingen ushbu satrlarda suvning asosiyligi emas, muhim uni qanday idishlarda ichishni yozuvchi ilgari surgan.

دەر چا درجه او مرتبە معلومە وە

دعامۇر گۇرۇ د پارە غنى ورىجى وي او لە معتبرونە بىل ناست وو

“Oddiy odamlar uchun oddiy guruch tayyorlangan bo’lsa, obro’li kishilar esa alohida joylarda mehmon qilindi”.

“Hayrat” hikoyasidan olingen ushbu parchada esa tabaqalanishning chuqur ma’nosi yotibdi. Boylar va kambag‘allarning joylari alohida alohida edi.

Yozuvchining ushbu ikki hikoyasi ham insoniylik haqida o‘yga toldirishi, bu tasvirlarning tagiga yetishga undashi bilan ahamiyatli. Yozuvchining shu tarzda samimiy tuyg‘ular ifodasidan hayratga tusha oladigan, chinakam sehrli go‘zallikni his qilishga qodir kishilarning ma’naviy olamini shakllantirishga xizmat etadi. O’zbek adabiyotida ham suv mavzusi ko‘plab hikoyalarda aks etgan. Ba’zilari tabiyat va inson haqida tasvirlasa, ba’zilar suv orqali ramziy ma’noni ochib beradi.

Masalan: O’tkir Hoshimovning “Daryo kechasi” hikoyada inson va daryo munosabatlari orqali hayot falsafasi, o‘tmish va hozirgi kunning taqqoslanishi tasvirlanadi.

Xudoyerdi To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha” bolalar uchun hikoyasida suv va uning hayotdagи ahamiyati haqidagi g‘aroyib voqealar bolalarga qiziqarli tarzda yetkaziladi.

Shukur Xolmirzayevning “Daryo va odamlar” nomli hikoyasida daryo inson hayotining ajralmas qismi sifatida tasvirlanib, u bilan bog‘liq shaxsiy va ijtimoiy muammolar ko‘tariladi. Hikoyada daryo odamlarning hayotiga qanday ta’sir qilishi, u bilan bog‘liq voqealar ramziy ma’noda yoritiladi.

“Hayrat” hikoyasida tabaqalanishni oladigan bo‘lsak ham, o‘zbek adabiyotidagi yuqorida nomlarini sanab o‘tgan hikoyalari bilan taqqoslash mumkin. Hikoyalarda boy va kambag‘al o‘rtasidagi muomala, insonlarning moddiy ahvoli ularga bo‘lgan munosabatni qanday o‘zgartirishi tasvirlanadi. Tahlilda hikoyadagi go‘zal o‘xshatishlar, kutilmagan obrazli ifodalarni ko‘rishga, tushunishga e’tibor qilinsa, o‘quvchi oldida go‘zallikning hadsiz dunyosi ochiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari to‘plami. Toshkent- 2020.
2. Kabirova N.K. Rahnavard Zaryob hikoyalarining poetikasi. Monografiya. Toshkent- 2021.
3. Герасимова А., Гирс Г. Литература Афганистана. –М.: ИВЛ, 1963.
4. Гирс Г.Ф. Современная художественная проза на пушту в Афганистане. –М.: 1958.
5. گل پاچا الفت. غوره نشونه پشاور. ۱۳۷۳.
6. گل پاچا الفت. غوره نشونه «خبرات» پشاور. ۱۳۷۳. ص ۵۰.
7. انځور زرين، دېښتو لندې کيسى یو لند تاریخي جاچ، «کابل» مجله، ۱۳۶۳ کال، ۱۰ ګنه، ۵۸-۷۳ مخوبه.